

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARI TIL XUSUSIYATI

*Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi
TerDPI o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada X.To‘xtaboyev asarlari til xususiyati kuzatilgan bo‘lib, asarda qo‘llanilgan ibora, noadabiy qatlama (argo, jargon), shevaga xos so‘zlar, eskirgan (tarixiy va arxaik) *kabi so‘zlarning qo‘llanilish o‘rnini kuzatilib, asar mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati tushuntirildi.*

Kalit so‘zlar: ibora, noadabiy qatlama(argo, jargon) shevaga xos so‘zlar, eskirgan (tarixiy va arxaik) so‘zlar.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To’xtaboyev asarlari ko‘proq bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lgani uchun og‘zaki uslubda, tushunarli va sodda tilda yozilgan.

Bolalar adabiyotining xarakterli xususiyatlari:

Bolalarga asosiy ro‘l beriladi.

Mavzuga ko‘ra, bu bolalar yoshiga to‘g’ri keladi;

Oddiy tilda;

Ko‘p dialog va harakatlar, ozgina tavsiflar;

Sarguzashtlar ko‘p;

Baxtli tugash(yaxshilikning yovuzlikustidan g’alabasi)¹ kabi holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, “Besh bolali yigitcha” romanida ham bu jihatni kuzatishimiz mumkin.Jumladan, “Nemis-fashist bosqinchilari Parpi buvaning nazarida “Girmonning har bitta o‘qi aravaning gupchagidek keladi”, “o’sha girmon deganlari juda zo‘r bo‘lsa, Ko‘rshermatcha bo‘lar-da”, deydi u. Bu parchadagi Girmon,nemis-fashist, Ko‘rshermat – og‘zaki uslubga xos, gupchagidek-shevaga xos so‘z. Misol uchun, “Shu paytda yuz bergen to‘poloni ko‘rsangiz: biri ko‘ylagini axtargan, biri shimini kiyolmay tepingan, boshqasi yuzini yuvish uchun hovliga yugurgan, yana bittasi ishtonini teskari kiyib shunday ketaveraman deb irg’ishlangan

Frazeologizmlardan unumli foydalanilgan: Ko‘zimni kuydirib,betini teskari qilsin, ko‘pga kelgan to‘y, bolalarni boshi ko‘zidan sadaqa, igna tashlasang yerga tushmaydigan, qoqligan qoziqdek jim, ko‘z yumib ochguncha, ko‘rgani ko‘zi otgani o‘qi yo‘q, bo‘sish kelmadi, eshakday ishlaydi, boshi toshdan bo‘lsin, qulooq solmoq, jahl

¹ Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti” “O‘qituvchi” Tosh-2010,25-bet

otiga minmoq, o'tqizgani joy topolmay qolmoq, bo'yin egmoq, pashsha uchsa eshitilmoq.

Shevaga xos so'zlar – Uqachapolvon (laqab), jag`-jag`, (makkani) uqalamoq, musallas, chori (charvi), bannan (nimaligi noma`lum), xakka (zag`izg`on), opa (ona), yog`cheva (yog` solinadigan idish)

Asarda uchrangan **noadabiy qatlam(jargon)** so`zlar:²

- Bibifotimaning ro`molidan yana nechta kerak? – deb so`radi Roziq tog`am kulishdan to`xtab, - mana, tag`in bittasini **otpravka** qilyapman, janjallahmasdan bo`lib olinglar. (75-bet)

- Men yana o`ylanib ketdim. Nima qilsam ekan? Yoki ukalarim bilan **detdomgaborib** qo`ya qolsammikin? (83-bet)

- Zulayxo bilan Usmonning ikki ko`zi **o`ris** xotinda bo`lib qoldi. U hech o`tirolmayapti. (85-bet)

- Rayon hukumati senlarga yaxshilik qilyapti-yu, sen bo`lsang hiqillab nozi-firoq qilasan-a! Hozir **remen** bilan savalab qolaymi, ahmoq! deb o`shqirib berdi.

(86-bet)

Xudoyberdi To`xtaboyevning “Sariq devning o`limi” asarida qo`llanilgan noadabiy qatlam (argo va jargon) so`zlarga misollar³:

Yalmog'iz kampir bizni dahlizga olib kirib, **umivalnikni** bir tomonga sekin surgan edi, pastga yo`l ochildi. Zinadan gilamlar bilan bezatilgan katta yerto`laga tushdik. (95-bet)

- **Militsiya** hamisha g'aflatda qolsin!

- Allohu akbar! - deyishdi hammalar.

Shundan so`ng ular bir-birlaridan hol-ahvol so'rashga, bola-chaqalarining sog`lig`ini surishtirishga tushib ketishdi. (96-bet)

“Xizmatingizga tayyorman, o'rtoq **mayor!**” - deb **chest** berdi. Men navbatchilik qanday o'tayotganligini surishtirgan bo`ldim. (97-bet)

Men o`z do'stlarimni hech qachon aldamayman, va'da qildimmi - bajaraman...

“Sallabodroq”, tur o'rningdan!

“Sallabodroq” deganlari haligi pahlavon ekan, shoshmasdan, inqillab o'rnidan turdi. (98-bet)

- **Chayqovchilar boshlig'i**, Orif, tur o'rningdan!

Ozg'in yigit qo`lini yerga tirab, arang o'rnidan turdi, turayotib bir **munkib** ham ketdi.

- Gapir!

- Ishlar **chatoq**, sarkor.

- Nimasi **chatoq**?

- **Chayqovchilar** kamayib ketyapti. (96-bet)

² Xudoyberdi To`xtaboyev. Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodii», 2009-yil.

³ Xudoyberdi To`xtaboyev. Sariq devning o`limi. «Yangi asr avlodii», 2017-y.

- Molni ber, bo`lmasa, *OBXSS*ga boramiz, deyishdi.
- *OBXSS*dan endi qo'rmasang ham bo`ladi! – tutaqib dedi «baxtiqaro» direktor. - Uning boshlig'i hozir ***olim to'shabida*** yotibdi. Xudo xohlasa, yaqinda hammamiz janozasiga boramiz... (99-bet)

Asarda uchragan **eskirgan (tarixiy va arxaik)** so`zlar:⁴

- Mo`tabar opam bolalaringni olib biznikiga yura qol, **tanchaga** o`t qildim, bozillab turibdi, isinib chiqasizlar deb hammamizni bir yo`la taklif qildilar? (81-bet)
- Opajonim hukumat uchun juda foydali ayol bo`lgani, shuning uchun ham **rayonrahbarlari** bizni yetimxonaga joylash haqida buyruq chiqarishganini aytib, chontagidan suv qog`ozga yozilgan xatni ko`rsatdi. (86-bet)
- ... siz juda tabarruk kishisiz, **zambarakka** pul bergeningiz uchun hozir butun **oblastda** sizni gapirishyapti, jannati odam deyishyapti, ... (87-bet)
- Amaki, keliningiz hozir jamiki traktorchilarga boshliq bo`lib ko`tarilib ketganlar,
- tushuntirdik **kolxozimizningraisi**. (87-bet)
- **Izvoshda** dedingmi? Barakalla, - deb xursandchilik bildirdi Parpi buvam, - menga qara qizim, o`sha **izvoshingni** bir kunga berolmaysanmi, tegirmonga borib don-dun tortib kelardim. (87-bet)

Asarda uchragan **antonim (zid ma`noli)** so`zlar:

- Nima bo`ldi, nima bo`ldi ekan opajonimga? Parpi buvam ichkariga, opam yoniga shoshilib **kirib ketdi-yu**, lekin nimagadir darrov orqasiga **qaytib chiqdi**: (77-bet)
- Opamning ko`zлari yumuq, kipriklarida yosh tomchilari yiltirab turibdi, ko`kragi temirchining damidek **ko`tarilib-tushyapti...** (79-bet)
- To`xta xolam ham kasal, nafasi qisyapti, **erta-yu kech** yotgani-yotgan. (81-bet)
- Omonni kimdir opang, albatta, tirilib keladi deb ishontirib qo`yibdi. Esiga tushdindeguncha **kechasi** demay, **kunduzi** demay meni qabristonga sudraydi, olib bormasam dodlab xunob qilib yuboradi... (84-bet)

“Sariq devning o’limi” asarida **frazeologik** birikmalarning qo’llanilishiga misollar⁵:

1. Kerak bo‘lsa, men **qo'ydek yuvosh** bo‘laman, kerak bo‘lsa, tulkidek ayyor bo‘laman, sharoit taqozo qilsa, sherdek hamla qilaman... Oralarida bittasi sal **oq ko'ngilroq...** o‘shandan ish chiqishi mumkin. (61-bet)

Qo'ydek yuvosh-iborasi bo'sh, bo'shang, rahimdil ma'nolarini berayapti. Bu ibora "qo'y og'zidan cho'p olmagan bola" iborasi sinonim bo'la oladi.

Oq ko'ngil-halol, pok, toza qalbli ma'nolarini beryapti.

2. - Uch oy yoningda saqlaysan-u, qanaqa pullar ekanligini bilmaysanmi? O‘rozvoy, ko‘rib turibmanki, halol, rostgo‘y yigitsan, yolg‘on gapirib o‘rganmagansan. Shuning uchun ham **ko'zingni olib qochyapsan**. Ko‘zlarining esa, hamma gapni aytib turibdi. (62-bet)

⁴ Xudoyerberdi To’xbaboyev. Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodii», 2009-yil.

⁵ Xudoyerberdi To’xbaboyev. Sariq devning o’ limi. «Yangi asr avlodii», 2017-yil.

Ko'zingni olib qochyapsan-turli holatda ishlatalishi mumkin. Misol uchun, hayajondan, uyatdan, yolg'on gapirganda ishlataladi. Bu yerda qahramon yolg'on gapirib o'r ganmaganligi uchun uyatdan ko'zini olib qochgan.

3. Men o'rtoq Ro'ziyevga tuhmat uyuştirilganidan xabardorman. Odil emas, kazzob, muttaham u, **uchiga chiqqan** poraxo'r u. Shahar savdo inspeksiyasiga ham, drujinachilarga ham tuhmat qilgan. Bechoralar tekshirgani kelgani bezillashadi. (65-bet)

Uchiga chiqqan-Haddan tashqari, juda ham ko'p degan ma'noni bildirib, haqarot, bo'rtirish ma'nosida kelyapti.

4. Shunday qilib, uchovlari jamuljam bo'lib o'tirishibdi. Kapitan Hoshimova "baxtiqaro" direktorning papkasini uzoq varaqladidi, nihoyat, boshini ko'tarib:

- **Yotib qolguncha otib qol**, qabilida ish tutishyapti. Xo'sh, Salimjon aka, endi nima qildik? - deb so'radi. (76-bet)

Yotib qolguncha otib qol-ko'p o'yamasdan ishni bitirish ma'nosida kelyapti. "O'ychi o'ylab o'tirguncha tavakkalchi ishini bitiradi" iborasi sinonim bo'la oladi.

5. Qing`ir-qiyshiq, pastqam ko'chalardan, o'g'ri topmas tor yo'llardan yurib, nihoyat, jarlik yoqasiga borib to'xtadik. "**Baxtiqaro**" direktor mashinadan tushib shofyorga bitta o'n so'mlik uzatdi: (94-bet)

6. -Bilasanmi, Hoshimjon, - derdi ba'zan u, - yuz minglab vijdonli halol yashayotgan kishilar ichida ba'zan bitta-ikkita turqisovug'i ham uchrab qoladi-yu, hammaning **dilini siyoh** qiladi, oromini o'g`irlaydi. (102-bet)

dilini siyoh-bizga ma'lumki, siyoh qora rangda bo'lib, insonni dilini(yuragi) nishunga qiyoslaydi. Xafagarchilik, dilni xushton bo'lishi ma'nolarini beradi. "Yuragimga chiroq yoqsa ham yorishmaydi" iborasini sinonim sifatida ishlatalish mumkin.

Asardagi voqealarni qahramonlar nutqi orqali ifoda etadi. Asarlarida maqol, matal, iboralardan unumli foydalanadi.

- Bo`lmasa, kim biladi deysiz, laqab qo'yish marosimi qulochkashlab, mushtlashish, **burunlarni yerga ishqalash** bilan tugagan bo`larmidi. (91-bet) *burunlarni yerga ishqalash-qattiq jazolash, adabini berib qo'yish, tazirini berish ma'nolarida kelyapti.*

- Tezrog ke1, eshak mingan bobong keldi, - deb qo'shimcha ham qilib qo'ydi o'sha ovoz. Bobom, bobojonim!.. **oyog`imni qo`limga olib yugurdim**, rost, rost ekan! (130-bet)

oyog`imni qo`limga olib yugurdim-bu ibora tezlikda, shoshish ma'nosibor. Qahramon hayajondan, sevinchdan ichiga sig'masdan harakat qilmoqda. Bu o'rinda tez yurdi desa ham bo'lardi, lekin ibora berganchalik ta'siri kuchli bo'lmasdi.

- Omon o'zini **qo'yarga joy topolmay** irg`ishlagan, Bibirobiya yangi kiyimlarini ko`z-ko`zlab goh bobom, goh xolajonim bilan ajomlashib ketgan, Usmon ukam

ochko`zlik bilan qatlamaga yopishgan, Sulton o'rikni danagi bilan yutib tiqilib qolgan... (131-bet)

o'zini qo`yarga joy topolmay-bu iborani ikki xil vaziyatda ishlatish mumkin Birinchidan,biror voqeadan kuchli ta'sirlanganda,yomon xabar eshitganda;Ikkinchidan,quvonarli voqeа ro'y berganda xursandchiligi ichiga sig'may ketganda.Omonda ikkinchi holatni kuzatishimiz mumkin.Uzoq ayriliqdan so'ng xolasi bilan uchrashish quvonchiga nisbatan ishlatilayapti.

- **Ko'z yumib ochguncha** atrofimizni bolalar o'rab olishdi. O`rig-u olchalardan hammalariga ulashib chiqdim yigirmata qatlamani bir burdadan arang yetkazibman deng. (132-bet)*Ko'z yumib ochguncha-tez fursatda,qisqa muddatda degan ma'noni beradi.Bu ibora ko'proq umrga nisbatdan ishlatiladi.*

Hamma badiiy asarda shevaga xos so'zlar qatnashadi.”Besh bolali yigitcha”asari ham bundan mustasno emas.

Xulosa qilib aytganda,Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida qo'llangan ibora, noadabiy qatlam(argo ,jargon),shevaga xos so'zlar, eskirgan (tarixiy va arxaik) kabi so'zlarning qo'llanilish o'rni kuzatilib, shunga amin bo'ldikki,asar qahramonlari holatini,asar mohiyatini kitobxonga tushuntirishdagi ahamiyati katta.Yozuvchi har bir so'zni o'z o'mida ,vaziyatiga mos holda qo'llay bilgani yozuvchining muvofaqqiyat siri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti” “O'qituvchi” Tosh-2010,25-bet
2. Xudoyberdi To'xtaboyev.Besh bolali yigitcha. «Yangi asr avlodи», 2009-yil.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devning o' limi. «Yangi asr avlodи», 2017.
4. N.Jo'ranazarova.Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida o'xshatish va metaforaning kontekslardagi o'rni. “Pedagogs” international research journal . Tosh-2024.
5. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
6. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO'LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.
7. Majidova Shahnoza Komilovna,Ne'matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
8. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.

9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdurakimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 154–162.
10. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34–37.
11. Sakhiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
12. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. PEDAGOGS, 57(1), 143–146.
13. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 168–170.
- 14.11. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛИМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. PEDAGOGS, 46(1), 67–69.
15. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
16. Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.
17. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
18. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.